ISSN: 2181-9416
5-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIY, ILMIY-AMALIY JURNAL

Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald



iD g doi crossref CYBERLENINKA НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/5

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5

LAWYER HERALD

ISSUE 5

Toshkent — 2026

MAXMUDOV Firuz Baxtiyor o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Instituti
direktorining ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo‘yicha o‘rinbosari,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
E-mail: professor.makhmudov@gmail.com

SUN’IY INTELLEKTNING YURIDIK MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: HUQUQIY TEXNOLOGIYALAR YURISTLAR O‘RNINI EGALLAYDIMI?

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): MAXMUDOV F.B. Sun’iy intellektning yuridik mehnat bozoriga ta’siri: huquqiy texnologiyalar yuristlar o‘rnini egallaydimi? // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2026) B. 194-205.

5 (2026) DOI https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/5-020

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun’iy intellekt va huquqiy texnologiyalarning yuridik kasblar va yuridik mehnat bozoriga ta’siri, shuningdek, texnologik transformatsiya sharoitida yuridik kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga qo‘yiladigan yangi talablar tadqiq etilgan. Maqolada xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum), YUNESKO, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda yuridik sohadagi xalqaro professional tashkilotlarning tahliliy materiallari asosida sun’iy intellektning yuridik faoliyatga ta’sirining asosiy yo‘nalishlari o‘rganilgan. Yuridik kasblarning to‘liq yo‘qolishidan ko‘ra, ularning vazifaviy tarkibi va mehnat mazmunining o‘zgarishi ehtimoli yuqoriligi asoslangan. Maqolada huquqiy tadqiqot, hujjatlarni tahlil qilish, shartnomalarni ko‘rib chiqish, ma’lumotlarni saralash kabi takroriy va standartlashtirilgan vazifalarning avtomatlashtirilish imkoniyatlari hamda murakkab huquqiy tahlil, strategik qaror qabul qilish, muzokara olib borish, etik baholash va professional javobgarlik kabi inson ishtirokini talab qiluvchi faoliyatlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirish va yuridik kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi sohasidagi mavjud normativ-huquqiy va institutsional asoslar ko‘rib chiqilgan. Tahlil natijasida zamonaviy yuridik kadrlarning kompetensiyalarini huquqiy-kasbiy, raqamli va sun’iy intellekt, xatarlarni boshqarish hamda amaliy-professional kompetensiyalar integratsiyasi asosida shakllantirish taklif etilgan. Maqolada bir martalik malaka oshirishdan uzluksiz va ehtiyojlarga asoslangan kasbiy rivojlanish modeliga o‘tish, SI va Legal Tech vositalarini yuridik ta’lim va amaliy mashg‘ulotlarga integratsiya qilish, shuningdek, texnologiyadan foydalanishda inson nazorati va professional javobgarlikni ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, Legal Tech, yuridik kasb, yuridik mehnat bozori, raqamli transformatsiya, yuridik kadrlar, uzluksiz kasbiy rivojlanish, raqamli kompetensiya, SI savodxonligi, professional kompetensiya, inson nazorati, huquqiy texnologiyalar.

МАХМУДОВ Фируз
Заместитель директора по научной работе и международному сотрудничеству Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических наук (DSc), доцент
E-mail: professor.makhmudov@gmail.com

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЮРИДИЧЕСКИЙ РЫНОК ТРУДА: ЗАМЕНЯТ ЛИ ПРАВОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ЮРИСТОВ?

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется влияние искусственного интеллекта и правовых технологий на юридические профессии и рынок труда в юридической сфере, а также новые требования к непрерывному профессиональному развитию юридических кадров в условиях технологической трансформации. В статье на основе аналитических материалов международных организаций, включая Международную организацию труда, Всемирный экономический форум, ЮНЕСКО, ОЭСР и международные профессиональные организации в юридической сфере, изучены основные направления влияния искусственного интеллекта на юридическую деятельность. Обосновано, что изменение функциональной структуры и содержания труда в юридических профессиях более вероятно, чем их полное исчезновение. В статье анализируются возможности автоматизации повторяющихся и стандартизированных задач, таких как правовые исследования, анализ документов, рассмотрение договоров и сортировка данных, а также важность таких видов деятельности, требующих участия человека, как сложный юридический анализ, принятие стратегических решений, ведение переговоров, этическая оценка и профессиональная ответственность. Также рассмотрены существующие нормативно-правовые и институциональные основы в сфере развития искусственного интеллекта и непрерывного профессионального развития юридических кадров в Узбекистане. В результате анализа предложено формирование компетенций современных юридических кадров на основе интеграции профессионально-правовых, цифровых компетенций и навыков работы с искусственным интеллектом, управления рисками, а также прикладных профессиональных компетенций. В статье разработаны предложения по переходу от разового повышения квалификации к модели непрерывного и основанного на потребностях профессионального развития, интеграции инструментов ИИ и Legal Tech в юридическое образование и практические занятия, а также обеспечению контроля со стороны человека и профессиональной ответственности при использовании технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, Legal Tech, юридическая профессия, рынок труда в юридической сфере, цифровая трансформация, юридические кадры, непрерывное профессиональное развитие, цифровая компетенция, ИИ-грамотность, профессиональная компетенция, контроль со стороны человека, правовые технологии.

FIRUZ Makhmudov
Deputy Director for Scientific Affairs and International Cooperation
at the Training Institute for Lawyers under the Ministry of Justice
of the Republic of Uzbekistan Doctor of Law (DSc), Associate Professor
E-mail: professor.makhmudov@gmail.com

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE LEGAL LABOR MARKET: WILL LEGAL TECHNOLOGIES REPLACE LAWYERS?

ANNOTATION

This article examines the impact of artificial intelligence and legal technologies on the legal profession and the legal labor market, as well as new requirements for the continuous professional development of legal professionals in the context of technological transformation. Based on analytical materials from international organizations, including the International Labour Organization, the World Economic Forum, UNESCO, the OECD, and international professional organizations in the legal field, the article explores the main directions of artificial intelligence's impact on legal activities. It substantiates that a change in the functional structure and content of labor in legal professions is more likely than their complete disappearance. The article analyzes the possibilities of automating repetitive and standardized tasks, such as legal research, document analysis, contract review, and data sorting, as well as the importance of activities requiring human participation, such as complex legal analysis, strategic decision-making, negotiation, ethical assessment, and professional responsibility. The existing regulatory and institutional frameworks for the development of artificial intelligence and the continuous professional development of legal professionals in Uzbekistan are also reviewed. As a result of the analysis, it is proposed to form the competencies of modern legal professionals based on the integration of professional-legal and digital competencies, skills for working with artificial intelligence, risk management, and applied professional competencies. The article develops proposals for transitioning from one-time advanced training to a model of continuous and needs-based professional development, integrating AI and Legal Tech tools into legal education and practical training, and ensuring human oversight and professional responsibility when using technologies.

Keywords: artificial intelligence, Legal Tech, legal profession, legal labor market, digital transformation, legal professionals, continuous professional development, digital competence, AI literacy, professional competence, human oversight, legal technologies.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yuridik kasblarning mazmuni va ularni amalga oshirish usullariga sezilarli ta'sir koʻrsatmoqda. Sun'iy intellekt va Legal Tech vositalaridan huquqiy tadqiqotlar olib borish, hujjatlarni tahlil qilish, shartnomalarni koʻrib chiqish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va huquqiy xatarlarni aniqlashda foydalanish imkoniyatlarining kengayishi yuristlardan an'anaviy huquqiy bilimlar bilan bir qatorda yangi raqamli kompetensiyalarni ham talab qilmoqda. Natijada yuristning kasbiy rivojlanishi diplom yoki bir martalik malaka oshirish kursi bilan yakunlanadigan jarayon emas, balki butun professional faoliyat davomida muntazam yangilanib boradigan tizimga aylanishi zarur.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2025-yilda e'lon qilingan tadqiqotida generativ sun'iy intellektning mehnat vazifalariga ta'siri oʻrganilib, asosiy ta'sir koʻplab kasblarning butunlay yoʻqolishidan koʻra mavjud ishlarning mazmuni va bajarilish usullarining oʻzgarishi bilan bogʻliqligi qayd etilgan. Tadqiqot 29 753 ta mehnat vazifasi haqidagi ma'lumotlarga asoslangan [1]. Mazkur holat yuridik sohada texnologiyadan foydalanish koʻnikmalari bilan bir qatorda analitik fikrlash, mustaqil professional mulohaza yuritish va texnologiya tomonidan taqdim etilgan natijalarni tekshirish qobiliyatini rivojlantirish zarurligini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan yuridik amaliyotda foydalanish faqat samaradorlik masalasi bilan cheklanmaydi. Texnologiyalardan foydalanish inson huquqlari, ma’lumotlar xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, algoritmik xatolar, diskriminatsiya ehtimoli, intellektual mulk va inson nazoratini ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni ham yuzaga keltiradi. YUNESKOning Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiyasida inson huquqlari va inson qadr-qimmatini himoya qilish, shaffoflik, adolatlilik va inson nazoratini ta’minlash muhim tamoyillar sifatida belgilangan [2]. Demak, zamonaviy yuristning raqamli kompetensiyasi faqat texnologik vositani ishlata olishdan iborat bo‘lmasligi, balki undan foydalanishning huquqiy va axloqiy oqibatlarini baholash qobiliyatini ham qamrab olishi kerak.

Mazkur masala davlat sektorida faoliyat yurituvchi xodimlar uchun ham dolzarbdir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning **2026-yildagi “Building an AI-ready Public Workforce: Implications and Strategies” (“**Sun’iy intellektdan foydalanishga tayyor davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish: ta’siri va strategiyalar”**)** tadqiqotida davlat xizmatchilarida tegishli ko‘nikmalarni shakllantirish, sun’iy intellekt bo‘yicha ta’limni rivojlantirish va xodimlarning SIdan samarali hamda mas’uliyatli foydalanishi uchun uzluksiz o‘qish mexanizmlarini yaratish zarurligi ta’kidlangan [3]. Bu yondashuv yuridik kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini ham texnologik o‘zgarishlarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Bugun dunyo nima deyapti?

Jahonda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar bilan ishlash, avtomatlashtirish va boshqa raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi huquqiy kasblarning mazmuni, huquqshunoslarning kundalik vazifalari va ularga qo‘yiladigan kasbiy talablarni tubdan o‘zgartirmoqda.

Bugungi kunda huquqshunos faoliyati an’anaviy ravishda huquqiy hujjatlarni tayyorlash, qonunchilikni izlash va tahlil qilish bilan cheklanib qolmayapti. Sun’iy intellekt va Legal Tech vositalari huquqiy tadqiqot, hujjatlarni tahlil qilish, huquqiy xavflarni aniqlash, shartnomalarni ko‘rib chiqish, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va boshqa jarayonlarda tobora keng qo‘llanilmoqda.

World Economic Forumning Future of Jobs Report 2025 (Jahon Iqtisodiy Forumining “Kelajak ish o‘rinlari 2025”) hisobotiga ko‘ra, 2030-yilga qadar mehnat bozoridagi mavjud ko‘nikmalarning o‘rtacha 39 foizi o‘zgarishi yoki eskirishi kutilmoqda. Shuningdek, ish beruvchilarning 63 foizi kadrlar ko‘nikmalaridagi tafovutni biznes transformatsiyasidagi asosiy to‘siq sifatida baholagan. Hisobotda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va kiberxavfsizlikka oid ko‘nikmalarga talab tez o‘sishi bilan birga, tahliliy fikrlash, moslashuvchanlik, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi insonga xos ko‘nikmalarning ahamiyati ham saqlanib qolishi ta’kidlangan. Shuningdek, 2030-yilgacha global mehnat bozorida 170 mln. yangi ish o‘rni yaratilishi, 92 mln. ish o‘rni esa siqib chiqarilishi prognoz qilingan. Natijada sof hisobda 78 mln. ish o‘rni ko‘payishi kutilmoqda. Bu kasblarning xususiyati esa raqamli faoliyat bilan bog‘liq. **World Economic Forum 2025** ma’lumotlariga ko‘ra, kelgusi yillarda SI va Big Data bilan bir qatorda analitik fikrlash, moslashuvchanlik va uzluksiz o‘rganish ko‘nikmalariga talab oshadi. Shu sababli, bu masalalar yuridik kadrlarni tayyorlashda o‘quv predmeti bo‘lishi kerak.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)ning 2025-yilgi tadqiqoti 29 753 ta vazifa va 436 ta kasbni tahlil qilgan. Uning asosiy xulosasi Generative SI ko‘proq kasblarni yo‘q qilishdan ko‘ra, ularni transformatsiya qiladi. Dunyoda har 4 nafar xodimdan taxminan 1 nafari GenSI ta’siriga ma’lum darajada duch keladi. Eng yuqori ta’sirga ega vazifalar, avvalo, ma’lumot kiritish, hujjat tayyorlash, matnni qayta ishlash va takroriy raqamli vazifalardir. Shu bois, xodimlarni “sun’iy intellekt mening o‘rnimni egallaydi” emas, “menga yordamchi bo‘ladi” degan tamoyil asosida tarbiyalash, uning ijobiy va salbiy jihatlariga tayyorlash kerak.

Yuridik kasblar ham mazkur transformatsiyaning markaziy sohalaridan biridir. **Thomson Reutersning yuridik va boshqa professional xizmatlar sohasi bo‘yicha tadqiqotlariga ko‘ra,** yuridik soha vakillarining aksariyati sun’iy intellekt kelgusi yillarda kasb faoliyatini jiddiy o‘zgartirishini kutmoqda. Shu bilan birga, tashkilotlarda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha aniq strategiya, xodimlarni tayyorlash va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan holatlar mavjud.

Sun'iy intellektdan huquqiy sohada foydalanish yangi imkoniyatlar bilan birga, ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik, algoritmik xatolar, huquqiy javobgarlik, inson nazorati, kasbiy etika va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ma'lumotlarni tekshirish bilan bog'liq yangi xavflarni ham keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda mazkur masala xalqaro tashkilotlar kun tartibida ham alohida o'rin egallamoqda. **YUNESKO** sun'iy intellektni ta'lim va tadqiqot sohasiga joriy etishda inson markazidagi yondashuv, ma'lumotlar maxfiyligi, etik nazorat, teng imkoniyatlar va insonning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini himoya qilish zarurligini ta'kidlamoqda.

OECD esa davlat sektorining sun'iy intellektga tayyorligi bo'yicha tadqiqotlarida xodimlarning aksariyati uchun texnik dasturlash ko'nikmalaridan ko'ra AI literacy – sun'iy intellektni tushunish, undan samarali va mas'uliyatli foydalanish, uning cheklovlarini baholash va inson nazoratini ta'minlash ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. OECD, shuningdek, davlat xizmatchilari uchun sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha tizimli o'qitish, aniq ichki qoidalar va boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt va huquqiy texnologiyalar yuridik sohada quyidagi asosiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda:

– *insonning fundamental huquqlari buzilish riskining mavjudligi;*
– *qaror qabul qilish va uning natijasi uchun yuridik mas'uliyat xavfi;*
– *intellektual mulk huquqining buzilish xavfi;*
– *maxfiylik va advokatlik sirining buzilishi;*
– *kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolar.*

Shu sababli, huquqiy texnologiyalar qancha rivojlanmasin inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fundamental huquq tamoyillaridan kelib chiqib qaror qabul qilish vakolatini yuridik kasb vakillaridan to'liq huquqiy texnologiyalariga berishga shoshilmaslik kerak.

Dunyo raqamlashayotgan bugungi sharoitda esa ta'lim ham zamonga moslashishi kerak, huquqshunoslarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi bir martalik ta'lim bilan cheklanishi mumkin emas. Zamonaviy huquqshunos o'z kasbiy faoliyati davomida muntazam ravishda yangi texnologiyalar, xalqaro standartlar, yangi huquqiy institutlar va kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirib borishi lozim. Bu masalalar esa mazkur loyihaning dolzarbligini aniq ko'rsatadi.

O'zbekistonda vaziyat qanday?

O'zbekistonda ham sun'iy intellektni rivojlantirish va yuridik ta'limni takomillashtirish bo'yicha huquqiy va institutsional choralar ko'rilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan 2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan [4]. Mazkur Strategiya SI texnologiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan vazifalarni ham nazarda tutadi.

Amalga oshirilayotgan tashkiliy va huquqiy islohotlar natijasida, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda sun'iy intellekt asosida 20 dan ortiq loyiha amalga oshirilgan, yana 70 ta loyiha turli sohalar va yirik korxonalar uchun ishlab chiqilgan. Bu esa tashkiliy-texnik yutuq hisoblansa-da, bu texnologiyalar bilan huquqiy jihatdan ishlovchi "raqamli huquqshunoslar"ni tayyorlash masalasi parallel ravishda o'z dolzarbligini oshirib bormoqda.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt va Legal Tech texnologiyalarining huquqiy sohada keng joriy etilishi yuridik kadrlarning mavjud bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilab borishni talab qilmoqda.

Bu borada qayd etish o'rinliki, O'zbekistonda huquqiy kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini tashkil etish bo'yicha muhim institutsional asoslar yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son Farmonida yuridik ta'limda amaliy tayyorgarlik, klinik va dual ta'lim tamoyillarini joriy etish, ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish nazarda tutilgan [5]. Mazkur yo'nalishlar yuridik kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda amaliyotda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida ham nazariy bilimlarni real huquqiy vaziyatlar, texnologik vositalar va kasbiy vazifalar bilan bog'lash uchun muhim asos yaratadi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-sonli qarori bilan faoliyati tashkil etilgan Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining asosiy vazifalaridan biri yuridik kadrlar va boshqa mutaxassislarni zamonaviy ta'lim standartlari, xalqaro tajriba va uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyillari asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirishdan iborat [6]. Institut tomonidan 2025-yil davomida jami 423 ta malaka oshirish guruhlari uchun o'qishlar tashkil etilib, ularda 37 672 nafar tinglovchi qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qitildi. 2026-yilning 6 oyi davomida jami 221 ta qayta tayyorlash, malaka oshirish va maxsus tayyorlash guruhlari uchun o'qishlar tashkil etilib, ularda 17 058 nafar tinglovchi malaka oshirish kurslarida o'qitildi. Biroq, Institutda sun'iy intellekt va Legal Tech bo'yicha maxsus kurslar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, mazkur kurslarda o'qitilgan kadrlarning ulushi yuqoridagi raqamlarning 10 foizini ham tashkil qilmaydi. Bu boradagi asosiy muammo nafaqat moliyaviy manbalarda, balki buyurtmachilarning o'z xodimlarini mazkur yo'nalishda o'qitishga yetarlicha e'tibor qaratmayotgani bilan bog'liq.

Institut respublikada huquqshunos va huquqshunos bo'lmagan kadrlarning malakasini oshirish borasida eng katta raqamdagi kontingent bilan ishlash tajribasi sohadagi kadrlar salohiyatini tahlil qilish asosida amaliyotda quyidagi muammolar saqlanib qolayotganini aniqladi:

yuridik kasblarning kelgusi transformatsiyasiga mos zamonaviy kompetensiyalar modeli to'liq shakllanmagan;

ish beruvchilarning qanday toifadagi kadrlarga investitsiya qilish madaniyati to'liq shakllanmagan;

huquqshunoslar uchun sun'iy intellekt, Legal Tech va boshqa raqamli huquqiy texnologiyalar bo'yicha tizimli va amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish darajasi yetarli emas;

sun'iy intellektdan huquqiy faoliyatda foydalanishning etik, huquqiy va kasbiy standartlari bo'yicha amaliy metodik materiallar kam;

yuridik kadrlarning hududiy va sohaviy ehtiyojlarini aniqlash hamda shu ehtiyojlar asosida malaka oshirish dasturlarini muntazam yangilash mexanizmlarini takomillashtirish talab qilinadi;

yuridik ta'limda xalqaro ekspertlar, zamonaviy Legal Tech mutaxassislari va amaliyotchi huquqshunoslarni tizimli jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish zarur;

yuridik kadrlar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishning raqamli va gibrid ta'lim modellarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Shu sababli, yuridik kasblarning global transformatsiyasi sharoitida sun'iy intellekt va boshqa huquqiy texnologiyalardan mas'uliyatli foydalanish, xalqaro standartlar va amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni birlashtiruvchi kompleks uzluksiz kasbiy rivojlanish modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Huquqiy texnologiyalar yuristlar o'rnini egallaydimi? Dunyo olimlari nima demoqda?

Sun'iy intellektning yuridik mehnat bozoriga ta'siri masalasi so'nggi yillarda huquqshunoslik, mehnat iqtisodiyoti, raqamli texnologiyalar va Legal Tech sohalari kesishuvida shakllanayotgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur jarayonga nisbatan asosan ikki yondashuv shakllanganini ko'rish mumkin. **Birinchi yondashuv** vakillari sun'iy intellekt yuridik kasblarning an'anaviy vazifalarining muayyan qismini avtomatlashtirishi va natijada yuridik mehnatga bo'lgan talabni qisqartirishi mumkinligini ta'kidlaydi. **Ikkinchi yondashuvga** ko'ra esa, sun'iy intellekt yuristlarning o'rnini to'liq egallashdan ko'ra, ularning mehnat mazmunini o'zgartiradi, takroriy va texnik vazifalarni avtomatlashtiradi hamda yuristning tahliliy, strategik va insonga xos kompetensiyalariga bo'lgan talabni oshiradi.

Bu masala bo'yicha Richard Susskind va Daniel Susskindning qarashlari alohida ahamiyatga ega [7]. Ular texnologik taraqqiyot natijasida professional xizmatlarning an'anaviy tashkil etilish shakli o'zgarishini ta'kidlaydi. Ularning yondashuvida asosiy masala "mashina yuristning o'rnini egallaydimi?" degan savoldan ko'ra, "yuridik xizmatni ko'rsatishning qaysi vazifalari inson mehnatiga, qaysilari esa texnologiyaga tayanishi kerak?" degan savolga ko'chadi. Bu yondashuv yuridik kasbni yaxlit va o'zgarmas faoliyat sifatida emas, balki turli vazifalar yig'indisi sifatida ko'rish imkonini beradi. Natijada hujjatlarni saralash, standart shartnomalarni tahlil qilish, huquqiy ma'lumotlarni qidirish va katta hajmdagi

hujjatlarni qayta ishlash kabi vazifalarning avtomatlashtirilishi mumkinligi yuridik kasbning yoʻqolishi bilan emas, balki uning ichki tuzilmasining oʻzgarishi bilan izohlanadi.

Shu nuqtai nazardan, David Autorning ishlarida ilgari surilgan yondashuv ham muhimdir [8]. U algoritmlashtirish jarayonini faqat samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki shaffoflik, hisobdorlik, inson nazorati va huquqiy javobgarlik nuqtai nazaridan baholash zarurligini koʻrsatadi. Yuridik sohada bu masala, ayniqsa, muhim, chunki algoritm tomonidan berilgan natija oddiy texnik tavsiya emas, balki shaxsning huquq va majburiyatlariga ta'sir koʻrsatishi mumkin boʻlgan huquqiy qarorni tayyorlash jarayonining bir qismiga aylanishi mumkin. Shu sababli, SI vositalarining mavjudligi yuristning rolini bartaraf etmaydi, aksincha, texnologiyadan foydalanish jarayonida insonning huquqiy va professional nazoratini ta'minlash vazifasini kuchaytiradi.

Yuridik texnologiyalarning mehnat bozoriga ta'sirini vazifalar kesimida tahlil qilishda Dana Remus va Frank Levyning tadqiqotlari muhim nazariy asos boʻla oladi [9]. Ular yuridik xizmatlarda avtomatlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilar ekan, yuridik kasbning barcha vazifalari bir xil darajada avtomatlashtirilishi mumkin emasligini koʻrsatadi. Xususan, yuqori darajada standartlashgan va takroriy vazifalar texnologiya yordamida avtomatlashtirishga koʻproq moyil boʻlsa, noaniq huquqiy vaziyatni baholash, mijoz manfaatlarini aniqlash, muzokara olib borish, huquqiy strategiya ishlab chiqish va murakkab kasbiy qaror qabul qilish kabi vazifalar inson ishtirokini talab qilishda davom etadi.

Shu oʻrinda yuridik mehnatni "vazifalar portfeli" sifatida baholash ilmiy jihatdan muhimdir. Chunki "SI yuristlarning oʻrnini egallaydimi?" degan umumiy savol yuridik kasbning ichki tuzilishini yetarlicha aks ettirmaydi. Aslida esa sun'iy intellekt birinchi navbatda yuristning vazifalarini oʻzgartiradi. Masalan, huquqiy ma'lumotlarni qidirish, hujjatlarni dastlabki tahlil qilish, shartnomalardagi standart risklarni aniqlash, sud amaliyotini saralash va katta hajmdagi materiallarni tizimlashtirish kabi vazifalarda SI inson mehnatining muayyan qismini qisqartirishi mumkin. Biroq mazkur natijalarni huquqiy jihatdan baholash, ularning ishonchliligini tekshirish, huquqiy pozitsiya shakllantirish va yakuniy qaror uchun professional mas'uliyatni oʻz zimmasiga olish vazifalari inson huquqshunosining ishtirokini talab etadi.

Bu yondashuvni Miriam Stoppard va Legal Tech sohasidagi boshqa tadqiqotchilarning texnologiyalar yuridik xizmatlarning kompozitsiyasi va ish jarayonini oʻzgartirishi haqidagi qarashlari bilan ham uygʻunlashtirish mumkin. Bunda texnologiya yuristga raqobatchi sifatida emas, balki mehnat unumdorligini oshiruvchi vosita sifatida namoyon boʻladi. Biroq bu holat avtomatlashtirish jarayonining mehnat bozoriga ta'siri boʻlmaydi, degani emas. Aksincha, yuridik kasbning ayrim segmentlarida bir xil hajmdagi ishni bajarish uchun kamroq inson mehnati talab qilinishi mumkin. Shu bilan birga, yangi turdagi vazifalar – SI natijalarini tekshirish, algoritmlarning huquqiy xavflarini baholash, ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash, SI governance va raqamli komplayens kabi yoʻnalishlarga talab paydo boʻladi.

Sun'iy intellektning yuridik mehnat bozoriga ta'sirini tushunishda David Autorning mehnat bozorida texnologiyaning oʻrni haqidagi umumiy iqtisodiy yondashuvi ham nazariy ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlari texnologiya inson mehnatini faqat almashtiribgina qolmay, ayrim hollarda insonning imkoniyatlarini toʻldirishi va kuchaytirishi mumkinligini koʻrsatadi. Bu konsepsiyani yuridik sohaga qoʻllaganda, SI yuristning oʻrnini toʻliq egallashidan koʻra, yuristning ayrim intellektual operatsiyalarini tezlashtirishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Masalan, yurist yuzlab hujjatlarni qoʻlda koʻrib chiqish oʻrniga SI yordamida ularni dastlabki saralashi va keyin huquqiy ahamiyatga ega masalalarga diqqat qaratishi mumkin.

Biroq sun'iy intellektdan foydalanish yuridik kasb uchun mutlaqo xavfsiz jarayon emas. Ayniqsa, generativ SI vositalari tomonidan notoʻgʻri huquqiy ma'lumotlar, mavjud boʻlmagan sud qarorlari yoki huquqiy manbalarni shakllantirish ehtimoli yuristning professional mas'uliyatini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, SI natijasini tekshirish va verifikatsiya qilish kelajakda yuristning muhim professional kompetensiyalaridan biriga aylanishi mumkin. Demak, texnologiya huquqiy bilimning oʻrnini bosmaydi; aksincha, yuristdan huquqiy bilim bilan bir qatorda texnologiya natijalarini tanqidiy baholash qobiliyatini ham talab qiladi.

Mazkur masalada Richard Susskindning "technology competence"ga oid qarashlari ham alohida e'tiborga loyiq. Zamonaviy yurist nafaqat huquq normalarini bilishi, balki o'z faoliyatida foydalanayotgan texnologiyalarning imkoniyatlari va cheklovlarini ham tushunishi zarur. Shu ma'noda, kelajakda yuridik kasbiy kompetensiyani uchta o'zaro bog'liq element – huquqiy bilim, raqamli savodxonlik va tanqidiy-tahliliy fikrlash birligi sifatida ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt yuridik kasbning insonga xos jihatlarini to'liq takrorlay olmasligi masalasi ham ilmiy adabiyotlarda muhim o'rin tutadi. Yurist faoliyati faqat huquqiy axborotni qayta ishlashdan iborat emas. Mijoz bilan ishlash, uning manfaatlarini tushunish, huquqiy strategiyani tanlash, muzokara olib borish, etik dilemmalarni hal qilish, ijtimoiy kontekstni baholash va huquqiy qarorning insonga ta'sirini hisobga olish kabi elementlar yuqori darajada kontekstual xususiyatga ega. Shu sababli, yuridik sohada SIdan foydalanish inson huquqshunosining rolini butunlay yo'q qilishdan ko'ra, uning kasbiy rolini qayta shakllantirishi ehtimoli yuqori.

Natijada yuridik mehnat bozorida "yurist yoki sun'iy intellekt" modeli emas, balki "yurist va sun'iy intellekt" modeli shakllanishi mumkin. Bunday yondashuvda sun'iy intellekt ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, saralash va prognozlashda, yurist esa huquqiy mazmunni anglash, natijalarni tekshirish, qaror qabul qilish va professional mas'uliyatni amalga oshirishda asosiy rolni saqlab qoladi.

Shundan kelib chiqib, yuridik kasbning kelajagini baholashda sun'iy intellektning qancha vazifani avtomatlashtirishi emas, balki yuridik kasbda inson va texnologiya o'rtasida mehnat taqsimoti qanday shakllanishi asosiy ilmiy masala bo'lishi lozim. Texnologik taraqqiyot natijasida ayrim an'anaviy vazifalar qisqarishi mumkin, biroq bu bilan bir vaqtda yangi huquqiy, texnologik va boshqaruv kompetensiyalariga talab paydo bo'ladi. Shu sababli yuridik ta'lim va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi ham "texnologiyani qo'llash"ni emas, balki texnologiyadan huquqiy, mas'uliyatli va tanqidiy foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Dunyo olimlari va turli aql markazlari tahlillari asosida 2030, 2040 va 2050-yillarga borib huquqiy sohada yo'qolib ketadigan kasblar bo'yicha ma'lumotlar ham shakllanmoqda. Ishonchli manbalarning aksariyati kasblarning butunlay yo'qolishidan ko'ra, ayrim vazifalarning avtomatlashtirilishi, ish o'rinlari sonining qisqarishi va kasb mazmunining o'zgarishini prognoz qiladi. Xususan, Law Society of England and Wales 2050-yilga mo'ljallangan **Future Worlds 2050** loyihasida huquqiy sohaning 2030-2040 va 2040-2050 davrlaridagi ehtimoliy transformatsiyalarini o'rgangan. Tashkilot bu ishni aniq prognoz emas, balki huquqiy sohaning kelajakdagi o'zgarishlarini tushunishga yordam beruvchi kelajak loyihasi sifatida amalga oshirgan [10]. **Xulosa esa oddiy:** *SI millionlab normativ hujjatlar, sud qarorlari va boshqa huquqiy manbalarni bir necha soniyada tahlil qilishi mumkin bo'lgan sharoitda oddiy "qonun qidiruvchi" mutaxassisga talab kamayadi.*

Lekin, butun dunyo olimlari va aql markazlari tahlillari biroz boshqacha xulosaga kelmoqda: 2030-2050-yillar istiqbolida yuridik mehnat bozoridagi asosiy o'zgarish yurist kasbining mutlaq yo'qolishidan ko'ra, uning vazifaviy tarkibining qayta taqsimlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Birinchi navbatda, takroriy, standartlashtirilgan va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan vazifalar avtomatlashtiriladi. Natijada hujjatlar bilan avtomatik va tashkiliy-texnik jihatdan ishlovchilarga talab qisqarishi mumkin. Biroq murakkab huquqiy tahlil, strategik maslahat, muzokara, inson manfaatlarini baholash, etik qarorlar, suddagi vakillik va yakuniy professional javobgarlik kabi funksiyalar inson ishtirokini saqlab qoladi.

Shundan kelib chiqib xulosa sifatida aytish mumkinki, *sun'iy intellekt yuridik kasbni yo'qotishga olib keluvchi omildan ko'ra, yuridik mehnatning vazifaviy tarkibini qayta shakllantiruvchi texnologiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois kelajakda raqobat "yurist va sun'iy intellekt" o'rtasida emas, balki sun'iy intellektdan samarali, tanqidiy va mas'uliyatli foydalana oladigan yuristlar bilan bunday kompetensiyalarga ega bo'lmagan yuristlar o'rtasida shakllanishi mumkin.*

Zamonaviy yuridik mehnat bozori va huquqshunos kadrlar tayyorlash

Albatta, sun'iy intellekt va huquqiy texnologiyalarning yuristlar o'rnini egallay olmasligi bo'yicha qancha fikrlar bildirilsa-da, mazkur real hodisaning yuz berish ehtimoli huquqshunoslar oldiga

zamonaviy ta'lim asosida rivojlanish majburiyatini qo'yadi. Chunki zamonaviy yuridik amaliyotda zamonaviy huquqiy bilimga, kompetensiyaga ega "raqamli huquqshunos"lar samarali ishlay oladi. Shu sababli, texnologik transformatsiya sharoitida yuridik kadrlarni tayyorlash muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. *Xo'sh, bugun yuridik kasblarga qanday yangi talablar qo'yilmoqda, zamonaviy kadr tayyorlashda nimalarga e'tibor berishimiz kerak?*

Yuridik faoliyatning raqamlashtirilishi, sun'iy intellekt va Legal Tech vositalarining huquqiy amaliyotga jadal kirib kelishi yuridik kasblarning mazmuni va ularga qo'yiladigan kasbiy talablarning o'zgarishiga olib kelmoqda. Huquqiy axborotni izlash, hujjatlarni tahlil qilish, shartnomalarni ko'rib chiqish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash hamda ayrim huquqiy xatarlarni aniqlash kabi vazifalarning texnologiyalar yordamida bajarilishi yurist faoliyatining faqat texnik jihatlarini emas, balki zarur kompetensiyalar tarkibini ham qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy yuristning kasbiy tayyorgarligi an'anaviy huquqiy bilimlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. U raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va Legal Tech vositalarining ishlash imkoniyatlarini tushunish, ulardan kasbiy maqsadlarda foydalanish, texnologiya tomonidan shakllantirilgan natijalarni tanqidiy baholash va ularning huquqiy oqibatlarini aniqlash qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur. Shu bilan birga, texnologiyadan foydalanish bilan bog'liq maxfiylik, ma'lumotlar xavfsizligi, intellektual mulk, algoritmik xatolar va professional javobgarlik kabi masalalarni anglash ham zamonaviy yuridik kompetensiyaning tarkibiy qismiga aylanmoqda [11].

Shuning uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishni faqat muayyan davrda tashkil etiladigan alohida o'quv kurslari yig'indisi sifatida emas, balki yuridik faoliyatdagi texnologik va institutsional o'zgarishlarga muntazam moslashib boruvchi dinamik tizim sifatida ko'rish zarur. Bunday yondashuv yuristlarning nafaqat mavjud texnologiyalardan foydalanishini, balki kelgusida paydo bo'ladigan yangi vositalarni mustaqil o'zlashtirish va ularni professional nuqtayi nazardan baholash qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda sun'iy intellektning huquqiy tadqiqot, hujjatlarni tahlil qilish, shartnomalarni ko'rib chiqish, huquqiy ma'lumotlarni saralash va katta hajmdagi axborotni qayta ishlashdagi imkoniyatlari kengayib bormoqda. Shu sababli uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarida SI savodxonligi, Legal Tech vositalaridan foydalanish, raqamli ma'lumotlar bilan ishlash va texnologik natijalarni tanqidiy baholashga yo'naltirilgan kompetensiyalar alohida o'rin egallashi lozim.

Biroq texnologik kompetensiyani muayyan dastur yoki platformadan foydalanish texnikasini o'rgatish bilan cheklash yetarli emas. Masalan, 2024-yilgi **American Bar Association Legal Technology Survey** ma'lumotlarida yuridik amaliyotda SI vositalaridan foydalanish bilan bog'liq asosiy xavotirlar qatorida aniqlik, ishonchlilik, ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi masalalari qayd etilgan [12]. Demak, texnologik savodxonlik bilan bir qatorda texnologiya natijasini tekshirish va uning chegaralarini anglash qobiliyati ham shakllantirilishi kerak.

Shu jihatdan zamonaviy yurist SI tomonidan taqdim etilgan ma'lumotni tayyor va yakuniy huquqiy xulosa sifatida qabul qilmasligi, balki uning manbalarini tekshirishi, ishonchliligini baholashi, mavjud huquqiy vaziyatga mosligini aniqlashi va zarur hollarda muqobil manbalar bilan taqqoslashi lozim. Natijada professional qaror qabul qilish jarayonida texnologik vosita yordamchi instrument sifatida namoyon bo'ladi, yakuniy huquqiy baholash va professional javobgarlik esa yurist zimmasida qoladi.

Yuridik kasblarning texnologik transformatsiyasi yangi kompetensiyalarni shakllantirishni talab qilayotgan bo'lsa-da, mavjud uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimida ushbu ehtiyojlarni to'liq qamrab oladigan yondashuvlar hali yetarli darajada shakllanmagan. Avvalo, texnologik o'zgarishlar natijasida yuridik kasblar mazmunida yuz berayotgan o'zgarishlarga mos keladigan yagona va tizimli kompetensiyalar modeli zarur.

Ayniqsa, sun'iy intellekt va Legal Tech bo'yicha o'quv dasturlarining amaliyot bilan bog'liqligi muhim muammo sifatida namoyon bo'ladi. Nazariy ma'lumotlarni taqdim etishning o'zi tinglovchida texnologiyadan xavfsiz va mas'uliyatli foydalanish ko'nikmasini shakllantirmaydi. Bunda real huquqiy vaziyatlarni modellashtirish, hujjatlarni SI yordamida tahlil qilish, texnologik natijalarni tekshirish,

xatolarni aniqlash va mustaqil huquqiy xulosa shakllantirish kabi amaliy mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim masala barcha yuridik xodimlar uchun bir xil mazmundagi umumiy texnologik kurslarni tashkil etishning yetarli emasligidir. Turli yuridik kasblarning funksional vazifalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli sudyalar, advokatlar, prokuratura xodimlari, davlat organlari yuridik xizmatlari xodimlari, notariuslar, yuridik ta’lim va ilmiy faoliyat vakillari uchun texnologik kompetensiyalarning mazmuni ham differensial yondashuv asosida belgilanmog‘i lozim.

Huquqiy-kasbiy kompetensiya yuridik bilimlar, huquqiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash va qo‘llash, professional qaror qabul qilish hamda kasbiy mas’uliyatni qamrab oladi. Mazkur kompetensiya texnologik transformatsiya sharoitida ham yuridik kasbning asosiy fundamental negizi bo‘lib qoladi.

Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni bir martalik ta’lim tadbiri bilan cheklanmasligi lozim. U kasbiy ehtiyojlarni aniqlash, zarur kompetensiyalarni belgilash, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, natijalarni baholash va olingan natijalar asosida dasturlarni muntazam yangilash bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz sikl sifatida tashkil etilishi mumkin.

Taklif etilayotgan modelni xalqaro professional va institutsional yondashuvlar bilan qiyoslash uning asosiy elementlari zamonaviy xalqaro tendensiyalar bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Xususan, International Bar Association va Center for AI and Digital Policy tomonidan 2024-yilda e’lon qilingan *The Future is Now: Artificial Intelligence and the Legal Profession* hisobotida sun’iy intellektning yuridik kasbga ta’siri bilan bir qatorda uni huquqiy amaliyotga mas’uliyatli va etik asosda joriy etish masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Mazkur yondashuv SI kompetensiyasini faqat texnik ko‘nikma sifatida emas, balki yuristning professional faoliyati va javobgarligi bilan bog‘liq masala sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt va Legal Tech vositalarining tez sur’atlarda rivojlanishi yuridik kadrlarni tayyorlashning an’anaviy modelini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Muayyan dastur yoki platformadan foydalanishni o‘rgatishga asoslangan qisqa muddatli kurslar qisqa davr ichida o‘z dolzarbligini yo‘qotishi mumkin. Shu sababli zamonaviy uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimining asosiy maqsadi muayyan texnologiyani o‘rgatishdan ko‘ra, yangi texnologiyalarni mustaqil o‘zlashtirish, ularning imkoniyat va cheklovlarini baholash hamda ulardan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish qobiliyatini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida ham SI va Legal Tech bo‘yicha ta’limni alohida, faqat texnik mazmundagi kurslar bilan cheklamasdan, mavjud yuridik fanlar va amaliy mashg‘ulotlarga integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Masalan, huquqiy tadqiqot mashg‘ulotlarida SI yordamida huquqiy manbalarni izlash va saralash, hujjatlar bilan ishlashda generativ SI tomonidan tayyorlangan matnlarni tekshirish, shartnoma huquqi bo‘yicha mashg‘ulotlarda avtomatlashtirilgan tahlil natijalaridagi xatolarni aniqlash, sud-huquqiy faoliyatga oid mashg‘ulotlarda esa SI tavsiyalarining huquqiy va etik oqibatlarini baholash kabi amaliy vaziyatlardan foydalanish mumkin.

Bunday yondashuv texnologiyani o‘rganishni kasbiy faoliyatdan ajratib qo‘ymasdan, uni bevosita yuridik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi. Umuman olganda, yuridik kasblarning texnologik transformatsiyasi yuristga qo‘yiladigan talablarni kamaytirmaydi, aksincha, ularning mazmunini murakkablashtiradi. Huquqiy bilimga ega bo‘lishning o‘zi yetarli bo‘lmay, undan texnologik vositalar bilan samarali foydalanish, SI natijalarini tanqidiy baholash, yuzaga keladigan huquqiy va axloqiy xatarlarni aniqlash hamda yakuniy professional javobgarlikni saqlab qolish talab etiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot sun’iy intellekt va huquqiy texnologiyalarning rivojlanishi yuridik kasblarning mazmuni, yuridik xizmat ko‘rsatish usullari va yuristlarga qo‘yiladigan professional talablarni o‘zgartirayotganini ko‘rsatdi. Bu jarayonda asosiy masala sun’iy intellekt yuristlarning o‘rnini to‘liq egallaydimi yoki yo‘qmi, degan savoldan ko‘ra, yuridik faoliyatning qaysi vazifalari texnologiyalar yordamida avtomatlashtirilishi va qaysi vazifalarda insonning professional ishtiroki zarurligini

aniqlashdan iborat. Xalqaro tadqiqotlarda ham sun'iy intellektning asosiy ta'siri koʻplab kasblarning toʻliq yoʻqolishidan koʻra, ularning mazmuni va ish jarayonlarining oʻzgarishi bilan bogʻlanmoqda.

Huquqiy faoliyatda hujjatlarni dastlabki tahlil qilish, huquqiy ma'lumotlarni izlash, standart hujjatlarni qayta ishlash kabi takroriy va standartlashtirilgan vazifalarni avtomatlashtirish imkoniyati yuqori. Biroq murakkab huquqiy tahlil, strategik maslahat, muzokara olib borish, mijoz manfaatlarini baholash, etik masalalarni hal qilish va yakuniy professional qaror qabul qilish kabi vazifalarda insonning huquqiy tafakkuri va javobgarligi muhim boʻlib qoladi. Shu sababli kelajakdagi yuridik faoliyatni "yurist yoki sun'iy intellekt" emas, balki "yurist va sun'iy intellekt" hamkorligi asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Texnologik oʻzgarishlar yuridik ta'lim va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimiga ham yangi talablarni qoʻymoqda. Zamonaviy yurist nafaqat huquq normalarini yaxshi bilishi, balki sun'iy intellekt va Legal Tech vositalaridan foydalanish, ularning imkoniyatlari va cheklovlarini tushunish, texnologiya yaratgan natijalarni tekshirish va mavjud xatarlarni baholash koʻnikmalariga ham ega boʻlishi kerak. OECD ham sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish uchun xodimlarda SI savodxonligi, tanqidiy fikrlash va uzluksiz oʻrganish koʻnikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Shu asosda yuridik kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida huquqiy-kasbiy, raqamli va sun'iy intellekt, xatarlarni boshqarish hamda amaliy-professional kompetensiyalarni birgalikda shakllantirish zarur. Buning uchun SI va Legal Tech boʻyicha alohida qisqa muddatli kurslar bilan cheklanmasdan, mazkur yoʻnalishlarni huquqiy tadqiqot, hujjatlar bilan ishlash, shartnoma huquqi, sud amaliyoti va davlat boshqaruvi kabi kasbiy fanlarga integratsiya qilish lozim.

Oʻzbekiston sharoitida ham yuridik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini texnologik oʻzgarishlarga moslashtirish, sun'iy intellekt, Legal Tech, raqamli huquq, ma'lumotlar xavfsizligi va SI etikasi boʻyicha amaliy koʻnikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda uzluksiz kasbiy rivojlanish bir martalik malaka oshirish tadbiri emas, balki ehtiyojlarni aniqlash – kompetensiyalarni belgilash – ta'lim berish – natijalarni baholash – dasturlarni yangilashdan iborat doimiy jarayon sifatida tashkil etilishi kerak.

Umuman, sun'iy intellekt yuridik kasbni butunlay almashtirishdan koʻra, uning mazmuni va faoliyat usullarini oʻzgartiruvchi omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Shuning uchun kelajakdagi yuristni tayyorlashning asosiy vazifasi texnologiyadan foydalanishni oʻrgatish bilangina cheklanmay, huquqiy bilim, raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, xatarlarni boshqarish va professional javobgarlikni yagona kompetensiya tizimida shakllantirishdan iborat boʻlishi lozim.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:

1. International Labor Organization. Generative AI and Jobs: A Refined Global Index of Occupational Exposure. ILO Working Paper 140. Geneva, 2025. URL: https://www.ilo.org/publications/generative-ai-and-jobs-refined-global-index-occupational

2. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO, 2022.URL: https://unesdoc.unesco.org/in/documentViewer.xhtml?ark=%2Fark:%2F48223%2Fpf0000381137%2FPDF%2F381137eng.pdf&file=%2Fin%2Frest%2FannotationSVC%2FDownloadWatermarkedAttachment%2Fattach_import_e8c4b5d-5af9-4e15-be6082f1a09956fd?_=381137eng.pdf&id=p::usmarcdef_0000381137&locale=fr&multi=true&v=2.1.196&ut

3. OECD. Building an AI-ready Public Workforce: Implications and Strategies. Paris: OECD Publishing, 2026. DOI: 10.1787/b89244c7-en. URL: https://www.oecd.org/en/publications/building-an-ai-ready-public_workforce_b89244c7-en.html?utm_source

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi PQ-358-son qarori. URL: http://lex.uz//docs/-7158604

5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-232-son Farmoni. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7864099

6. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi "Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 171-son qarori. URL: https://lex.uz/uz/docs/7437170

7. Susskind, R. Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future. 3rd ed. Oxford: Oxford University Press, 2023. DOI: 10.1093/9780192864727.001.0001. URL: https://academic.oup.com/oxford-law-pro/book/60058?utm_source

8. Autor, D. H. Why Are There Still So Many Jobs? The History and Future of Workplace Automation. Journal of Economic Perspectives, 2015, Vol. 29, No. 3, pp. 3–30. DOI: 10.1257/jep.29.3.3.

URL: https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/jep.29.3.3

9. Remus, D., Levy, F. Can Robots Be Lawyers? Computers, Lawyers, and the Practice of Law. 2016. SSRN Working Paper. DOI: 10.2139/ssrn.2701092. URL: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2701092

10. Council of Bars and Law Societies of Europe (CCBE). Guide on the Use of Generative AI for Lawyers. Brussels: CCBE, 2025. URL: https://www.ccbe.eu/actions/committeesworking_groups/index.html?Committee=IT+Law&idC=531&utm_source

11. Gmyrek P., Berg J., Kamiński K., Konopczyński F., Ładna A., Nafradi B., Rosłaniec K., Troszyński M. Generative AI and Jobs: A Refined Global Index of Occupational Exposure. ILO Working Paper 140. Geneva: International Labor Organization, 2025. 72 p. URL: https://researchrepository.ilo.org/esploro/outputs/encyclopediaEntry/995653520102676?utm

12. International Bar Association; Center for AI and Digital Policy. The Future is Now: Artificial Intelligence and the Legal Profession. London: International Bar Association, 2024. URL: https://www.ibanet.org/Artificial-intelligence-hubpage?utm.

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5

LAWYER HERALD

ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/5

2026-YIL